



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Dilshod Komolov, Asilbek Zulfiqorov YANGI O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	5
2. Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov JAMIYAT HAYOTIDA NURONIYLARNING TUTGAN O‘RNI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AMALIY IFODASI.....	11
3. Nodira Toliboyeva O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TA‘LIM TIZIMIGA JALB ETISH: TARIXIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR.....	18
4. Гулчехра Дадамирзаева СОВЕТЛАРНИНГ КОСИБ-ХУНАРМАНДЧИЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ.....	23
5. Akmal Mengliboyev QIZIL ARMIYA BOSQINIGA QARSHI SURXON VOHASIDA KURASHNING BOSHLANISHI.....	32
6. Ulug‘bek Mirzaliyev, Farhod Umurzoqov SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI URBANIZASIYA JARAYONLARI.....	39
7. Абдисаттор Қосимов ЧОРВАЧИЛИКДА СУРХОН-ШЕРОБОД ВОҲАСИ АСРИЙ ХЎЖАЛИК АНЪАНАЛАРИ.....	45
8. Sardorbek Rahimberdiyev TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK MIGRANTLARINING MADANIY IDENTIFIKATSIYASI VA KUNDALIK HAYOT STRATEGIYALARI (KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA).....	49
9. Shavkat Shapiyev FARHOD GIDRO ELEKTR STANSIYASI – O‘ZBEKISTONNING ENERGETIKA USTUNI.....	57
10. Diyora Chorshanbiyeva 2016-YILDAN KEYIN O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI VA YOSHLAR MASALASI.....	65
11. Sitara Nosirova DOSTONLARDA O‘ZBEK OILASINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI KO‘RINISHLARI.....	72
12. Lutfillo Mamasaidov O‘ZBEKISTONDA SAVODSIZLIKNING TUGATILISHI VA YANGI TA‘LIM TIZIMINI TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN.....	76



Dilshod Pulatovich Komolov,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasini professori
tarix fanlari doktori(DSc),
Asilbek Axmat o'g'li Zulfiqorov,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

YANGI O'ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI

For citation: Dilshod Komolov, Asilbek Zulfiqorov. DIGITAL TRANSFORMATION OF THE ADVOCACY INSTITUTION IN NEW UZBEKISTAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18941909>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida advokatura institutining raqamli transformatsiyasi jarayoni, uning huquqiy-tashkiliy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish doirasida advokatura faoliyatini raqamlashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, elektron order, "Yuridik yordam" axborot tizimi, elektron hujjat aylanishi va masofaviy muloqot mexanizmlarining joriy etilishi o'rganilgan. Shuningdek, advokatlarning protsessual vakolatlarini raqamli muhitda amalga oshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va elektron adliya infratuzilmasini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Maqolada milliy qonunchilikdagi o'zgarishlar, institutsional islohotlar hamda raqamli texnologiyalarning advokatura mustaqilligi va samaradorligiga ta'siri kompleks tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, elektron advokatlik orderi, elektron reyestr, axborot xavfsizligi.

Дилшод Пулатович Комолов,
Университет экономики и педагогики
Профессор кафедры Истории и социальных наук
доктор исторических наук(DSc),
Асилбек Ахмат угли Зулфиқоров,
Университет экономики и педагогики
Магистрант кафедры Истории и социальных наук

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ИНСТИТУТА АДВОКАТУРЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализирован процесс цифровой трансформации института адвокатуры в условиях Нового Узбекистана, а также его правовые и организационные

основы и практическое значение. В рамках модернизации судебно-правовой системы цифровизация деятельности адвокатуры рассматривается как одно из приоритетных направлений государственной политики; изучены вопросы внедрения электронного ордера, информационной системы «Юридическая помощь», электронного документооборота и механизмов дистанционного взаимодействия.

Кроме того, с научно-теоретической точки зрения освещены вопросы реализации процессуальных полномочий адвокатов в цифровой среде, обеспечения информационной безопасности, защиты персональных данных и совершенствования инфраструктуры электронной юстиции. В статье комплексно проанализированы изменения в национальном законодательстве, институциональные реформы, а также влияние цифровых технологий на независимость и эффективность адвокатуры.

Ключевые слова: цифровая трансформация, электронный адвокатский ордер, электронный реестр, информационная безопасность.

Dilshod Pulatovich Komolov,
University of Economics and Pedagogy
Professor of the Department of History and Social Sciences,
Doctor of Historical Sciences (DSc),
Asilbek Akhmat ogli Zulfiqorov,
University of Economics and Pedagogy
Master's student of the Department of History and Social Sciences

DIGITAL TRANSFORMATION OF THE ADVOCACY INSTITUTION IN NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article analyzes the process of digital transformation of the institution of the bar in the context of New Uzbekistan, as well as its legal and organizational foundations and practical significance. Within the framework of modernization of the judicial and legal system, the digitalization of advocacy activities is considered one of the priority directions of state policy; particular attention is paid to the introduction of the electronic warrant, the “Legal Assistance” information system, electronic document management, and mechanisms of remote interaction.

In addition, from a scientific and theoretical perspective, the article examines the implementation of lawyers' procedural powers in the digital environment, ensuring information security, protection of personal data, and the improvement of the e-justice infrastructure. The paper provides a comprehensive analysis of changes in national legislation, institutional reforms, and the impact of digital technologies on the independence and effectiveness of the bar.

Index Terms: digital transformation, electronic attorney warrant, electronic registry, information security.

1. Dolzarbligi:

Yangi O'zbekiston sharoitida davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini tubdan modernizatsiya qilish jarayonida raqamli transformatsiya ustuvor strategik yo'nalish sifatida belgilandi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohalarini, balki huquqiy tizimni ham qamrab olmoqda. Xususan, advokatura institutini raqamlashtirish masalasi fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, odil sudlovni ta'minlash hamda huquqiy davlat tamoyillarini amalda mustahkamlash nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Shu jihatdan, Yangi O'zbekistonda advokatura institutining raqamli transformatsiyasini ilmiy tahlil qilish, uning huquqiy, tashkiliy va institutsional asoslarini o'rganish hamda amaliy samaradorligini baholash dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

2. Metodlar:

Maqolada tarixiylik va qiyosiy tahlil, xronologik tizimli tahlil, kompleks yondashish, xolislik kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

3. Tadqiqot natijalari:

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish jarayoni doirasida barcha sohalarni raqamlashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon davlat xizmatlari sifatini oshirish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Raqamli transformatsiya huquqiy tizimni ham qamrab oldi va advokatura institutini modernizatsiya qilish davlat huquqiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining 2023 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida advokatura institutiga alohida bob bag'ishlanishi uning huquqiy davlat tizimidagi o'rni va ahamiyati sezilarli darajada oshganini anglatadi. Bu o'zgarish advokaturani faqat kasbiy tuzilma sifatida emas, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning konstitutsiyaviy instituti sifatida e'tirof etilishini anglatadi hamda uning institutsional mustaqilligi va huquqiy maqomini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi[1, -B.71].

Advokatura fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, odil sudlovni ta'minlash va huquqiy davlat tamoyillarini amalga oshirishda muhim institut hisoblanadi. Shu bois uning faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish yuridik yordam ko'rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermoqda. Bu huquqiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida shaffoflik, tezkorlik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi[2].

2022 yil 30 mayda qabul qilingan "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori mazkur sohada raqamli transformatsiyaning huquqiy asosini yaratdi[3]. Qaror advokatlik faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, protsessual vakolatni tasdiqlash hamda davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish jarayonlarini raqamli formatga o'tkazishni nazarda tutdi. Natijada ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, institutsional mustaqillikni mustahkamlash va huquqiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun huquqiy zamin yaratildi.

Advokatura faoliyatida mavjud byurokratik jarayonlar va qog'ozbozlik holatlari yuridik yordam samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat tuzilmalari bilan elektron hujjat aylanishini yo'lga qo'yish obektiv zaruratga aylandi. Elektron ma'lumot almashinuvi protsessual harakatlarning tezkorligini ta'minlaydi, hujjatlar aylanishini tizimlashtiradi hamda korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi.

Bu, avvalo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali advokaturaning davlat organlaridan amaliy mustaqilligini mustahkamlashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, advokatlik faoliyati uchun zarur axborot resurslariga tezkor kirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida idoralararo yagona elektron ma'lumot almashinuv tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Masofaviy yuridik yordam mexanizmlarini joriy etish aholining huquqiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va hududiy cheklovlarni bartaraf etadi. Bundan tashqari, advokatura faoliyati uchun zarur axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini shakllantirish hamda ularning axborot xavfsizligini ta'minlash raqamli transformatsiyaning ajralmas sharti hisoblanadi. Ayniqsa, advokatlik sirini muhofaza qilish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalalari ustuvor ahamiyatga ega.

Shu tariqa, advokatura institutini raqamlashtirish texnik yangilanish emas, balki uning institutsional mustaqilligini mustahkamlash, yuridik yordam sifatini oshirish va huquqiy davlat tamoyillarini amaliy jihatdan ta'minlashga qaratilgan kompleks islohot sifatida namoyon bo'ladi.

Advokatlik institutini raqamlashtirish jarayonining muhim bosqichlaridan biri litsenziya berish, davlat ro'yxatidan o'tkazish va kasbiy faoliyatni boshlash tartiblarini to'liq elektron shaklga o'tkazishdan iboratdir. 2023 yil 1 yanvardan mazkur sohada yangi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi advokatura tizimida ma'muriy jarayonlarni optimallashtirish va davlat xizmatlarini ko'rsatishni soddalashtirishga qaratilgan izchil qadam sifatida namoyon bo'ldi[3].

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun litsenziya berish tartibining "Litsenziya" axborot tizimi orqali amalga oshirilishi davlat boshqaruvida raqamli transformatsiya

tamoyillarining amaliy ifodasidir. Malaka imtihonini topshirishning amaldagi tartibi saqlangan holda, litsenziyalash jarayoni bilan bog'liq barcha tashkiliy harakatlar elektron formatga o'tkazildi. Bu, o'z navbatida, malaka imtihoni natijalarini elektron tarzda rasmiylashtirish, ularni advokatlarning elektron reyestriga avtomatik kiritish, litsenziyani masofadan turib rasmiylashtirish hamda uning amal qilishiga doir ma'lumotlarni axborot tizimi orqali yuritish imkonini yaratdi. Natijada inson omili ta'siri qisqartirildi, ma'muriy kechikishlar bartaraf etildi va litsenziyalash jarayonining shaffofligi ta'minlandi.

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish jarayonlarining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali "yagona darcha" tamoyili asosida faqat elektron shaklda amalga oshirilishi ham ma'muriy islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Bu tartib hujjatlarning elektron taqdim etilishini, ta'sis hujjatlarini muhr bilan tasdiqlash amaliyotining bekor qilinishini, elektron QR-kod va identifikatsiya raqamlari berish mexanizmlarining joriy etilishini nazarda tutadi. Shuningdek, tuzilma nomini ro'yxatdan o'tkazishda uning takrorlanmasligi haqidagi ma'lumotni onlayn tarzda tekshirish imkoniyati yaratildi. Bunday yondashuv ortiqcha byurokratik bosqichlarni qisqartirish va kasbiy faoliyatni boshlashni yengillashtirishga xizmat qiladi[3].

Advokatlik faoliyatini boshlash jarayonida malaka imtihonini topshirish, litsenziya olish va advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha kompozit (integratsiyalashgan) xizmatning joriy etilishi raqamli davlat xizmatlari rivojlanishining zamonaviy modeliga mos keladi. Ushbu mexanizm doirasida hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish, talabgorni imtihon vaqti va joyi haqida elektron tarzda xabardor qilish hamda advokatlik guvohnomasini QR-kod orqali raqamli identifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi. Bu kasbiy faoliyatni boshlash bosqichlarini soddalashtirib, vaqt va tashkiliy xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Shu tariqa, litsenziyalash va davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlarini raqamlashtirish advokatura institutining institutsional modernizatsiyasiga xizmat qiluvchi muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Advokatura sohasini raqamlashtirish jarayonining mantiqiy davomi sifatida fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish mexanizmlarini yagona kompleks raqamli platforma asosida tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. 2023 yil 1 yanvardan "Yuridik yordam" axborot tizimining ishga tushirilishi huquqiy xizmatlar sohasida tizimli raqamli infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan muhim institutsional islohot sifatida namoyon bo'ldi[3].

Mazkur tizim advokatura faoliyatini sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat tuzilmalari bilan integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bu huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida o'zaro hamkorlikning elektron formatini joriy etib, protsessual jarayonlarning muvofiqlashtirilgan va shaffof tarzda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Tizim doirasida advokatlarning elektron reyestri va shaxsiy elektron kabineti shakllantirilishi advokatlik faoliyatini raqamli muhitga ko'chirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Elektron reyestr advokatlar haqidagi rasmiy ma'lumotlarning yagona bazasi sifatida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlasa, shaxsiy elektron kabinet advokatning professional faoliyatini amalga oshirish uchun markazlashgan raqamli maydon vazifasini bajaradi. U orqali mijozlar bilan onlayn muloqot qilish, elektron raqamli imzo asosida shartnomalar tuzish va masofaviy yuridik yordam ko'rsatish imkoniyatlari yaratildi. Bu esa huquqiy xizmatlardan foydalanishda hududiy va vaqt cheklovlarini bartaraf etadi[4].

Shu bilan birga, idoralararo elektron hujjat almashinuvining yo'lga qo'yilishi (qonun bilan muhofaza qilinadigan sirlar bundan mustasno) protsessual harakatlar haqida advokatni tezkor xabardor qilish, tergov va sud jarayonlari vaqti va joyi to'g'risida axborot yetkazish hamda protsessual muddatlarga rioya etilishini ta'minlash imkonini beradi. Bu himoya huquqining to'liq amalga oshirilishi va taraflar tengligi prinsipining ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Advokat so'rovini elektron tarzda yuborish va javob hujjatlarini raqamli shaklda olish amaliyoti hujjat aylanishini avtomatlashtirib, vaqt va moliyaviy xarajatlarni qisqartiradi. Bundan tashqari, advokatlik maqomini elektron tarzda to'xtatib turish mexanizmining joriy etilishi ma'muriy jarayonlarni optimallashtirish va hisob yuritish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, “Yuridik yordam” axborot tizimi advokatura institutining raqamli transformatsiyasida markaziy o‘rin tutadi. U advokatlik faoliyatining shaffofligini oshirish, idoralararo axborot integratsiyasini kuchaytirish va yuridik yordam ko‘rsatish samaradorligini ta‘minlash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlaydi. Shu bois ushbu tizimni huquqiy xizmatlar sohasida raqamli ekotizimni shakllantirishga qaratilgan kompleks institutsional islohot sifatida baholash mumkin[3].

Advokatlik faoliyatini raqamlashtirish jarayonida protsessual vakolatni tasdiqlash mexanizmlarini modernizatsiya qilish alohida ahamiyatga ega. 2023 yil 1 fevraldan an’anaviy orderga teng huquqiy kuchga ega bo‘lgan, maxsus QR-kod bilan jihozlangan “Elektron advokatlik orderi” institutining joriy etilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim institutsional yangilik bo‘ldi[3].

Elektron advokatlik orderi advokatning muayyan ish bo‘yicha vakolatini tasdiqlovchi rasmiy raqamli hujjat sifatida xizmat qiladi. Uning amaliyotga tatbiq etilishi protsessual munosabatlarda hujjat aylanishini soddalashtirish, tekshirish jarayonlarini tezlashtirish va shaffoflikni ta‘minlashga qaratilgan.

Belgilangan tartibga muvofiq, advokatlik tuzilmasi bilan ishonch bildiruvchi shaxs o‘rtasida tuzilgan shartnomaning faqat rekvizitlari (raqami va sanasi) “Yuridik yordam” axborot tizimiga kiritiladi hamda ushbu ma‘lumotlar elektron orderni shakllantirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shartnoma mazmunining tizimga kiritilmasligi advokatlik sirini saqlash prinsipiga muvofiq keladi.

Davlat organlari, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar advokatning vakolatini QR-kod orqali tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu vakolatni aniqlash jarayonini tezkor va ishonchli tarzda amalga oshirishga, soxta hujjatlardan foydalanish xavfini kamaytirishga hamda protsessual harakatlarda vaqt tejashga xizmat qiladi. Shu tariqa, elektron order raqamli identifikatsiya vositasi sifatida protsessual munosabatlarda ishonchlilikni ta‘minlaydi.

Orderni qog‘oz shaklda rasmiylashtirish imkoniyati saqlab qolingan bo‘lsa-da, bunday hollarda ham uning rekvizitlarini axborot tizimiga kiritish majburiy hisoblanadi. Bu yagona elektron hisob yuritish mexanizmini shakllantirish, statistik tahlil va nazorat funksiyalarini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni doirasida advokat so‘roviga nisbatan qo‘yilgan ayrim ortiqcha talablar bekor qilindi, jumladan order nusxasini ilova qilish va orderlarni alohida daftarda qayd etish amaliyoti tugatildi. Bu ma‘muriy yuklamani kamaytib, advokatning protsessual faoliyatini erkin va samarali amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Umuman olganda, elektron advokatlik orderi instituti protsessual vakolatni tasdiqlashning zamonaviy raqamli modeli sifatida advokatura faoliyatining shaffofligi, ishonchliligi va samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi hamda uning institutsional mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi.

“Yuridik yordam” axborot tizimining joriy etilishi advokatura faoliyatini raqamli transformatsiya qilishda kompleks yondashuvni taqozo etadi. U faqat protsessual jarayonlarni avtomatlashtirish bilan cheklanmasdan, advokatlik faoliyatini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini ham zamonaviy raqamli asosda qayta shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazkur tizim doirasida davlat hisobidan advokatlarni ishga jalb etish elektron tarzda tasodifiy tanlash mexanizmi asosida amalga oshirilishi belgilandi. Bu yondashuv tanlov jarayonining xolisligi va shaffofligini ta‘minlab, korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi hamda davlat tomonidan kafolatlangan yuridik yordam tizimiga ishonchni mustahkamlaydi. Elektron taqsimot adolatlilik tamoyilini amaliy jihatdan ta‘minlaydi.

Advokatlarning onlayn malaka oshirish tizimini joriy etish va malaka oshirganligini elektron sertifikatlar orqali tasdiqlash kasbiy rivojlanish jarayonini raqamli muhitga ko‘chiradi. Bu uzluksiz ta‘limni ta‘minlash, hududiy cheklovlarni bartaraf etish va malaka oshirish jarayoni ustidan elektron monitoringni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli sertifikatlash yagona ma‘lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Statistik ma‘lumotlarni an’anaviy tarzda yig‘ish amaliyotining bekor qilinishi va ularni avtomatik ravishda shakllantirish mexanizmining joriy etilishi raqamli boshqaruvning muhim

elementi hisoblanadi. Bu hisobot yuritishda inson omilini kamaytiradi, tahliliy ma'lumotlarni tezkor olish imkonini yaratadi hamda sohada strategik qarorlar qabul qilish uchun ishonchli statistik asosni ta'minlaydi.

Axborot tizimining samarali faoliyati uning mustahkam normativ-huquqiy bazasi va texnik infratuzilmasi bilan uzviy bog'liq. Shu munosabat bilan tizim faoliyati tartibini belgilovchi huquqiy hujjatlarni qabul qilish, uning mobil ilovasini ishlab chiqish va boshqa axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan integratsiyasini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Adliya vazirligining tizim integratsiyasi, uzluksiz ishlashi, axborot xavfsizligi va advokatlik sirini muhofaza qilish uchun mas'ul organ sifatida belgilanishi institutsional javobgarlikni aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Tizimni ishga tushirish va qo'llab-quvvatlash xarajatlarini maxsus jamg'arma mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish raqamli infratuzilmaning barqarorligini ta'minlaydi va budjet yuklamasini optimallashtiradi.

Shu bilan birga, axborot tizimining samarali ishlashi advokatlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni talab etadi. Kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish dasturlariga raqamli texnologiyalardan foydalanish, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik bo'yicha bilimlarni kiritish inson kapitali rivojlanishiga xizmat qiladi.

4.Xulosa qilib aytganda, raqamli infratuzilmaning shakllantirilishi advokatlik faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish va huquqiy davlat tamoyillarini amaliy jihatdan ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Umuman olganda, advokatura institutining raqamli transformatsiyasi texnik yangilanish emas, balki uning tashkiliy-huquqiy va institutsional taraqqiyotini ta'minlovchi strategik islohot sifatida baholanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. - 80 b. [Constitution of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent: Uzbekistan, 2023. – 80 p.].

2.O'zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to'g'risida”gi Qonuni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-2833860> [Law of the Republic of Uzbekistan “On Electronic Government”].

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/6039334> [Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 30, 2022].

4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi “Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6143599> [Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated August 5, 2022 “On Approval of the Regulation on Licensing Advocacy Activities through a Specialized Electronic System”].

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000